


46. Burchakli bo'lish



Yondosh mavzu:
oshpazlik.

Xonali sonlar, bo'linuvchi,
bo'luvchi, bo'linma.



1. Sonlarni o'sib borish tartibida joylashtiring.
Barcha qandolatchilar ishlatadigan xushbo'y masalliq nima?

A 179

L 590

I 290

V 90

N 225



2. Qandolatchi shirinlik pishiryapti. U tayyor pishiriqlarni qutilarga solyapti. Nechta quti bo'ladi? Nechta pishiriq ortib qoladi?

	Jami pishirilgan	Bitta qutiga nechta ketadi	Jami qutilar
Ekler 	38	6	?
Ponchik 	59	8	?
Keks 	73	9	?



3. Pishiriq solingan qutilarning ustiga qadoqlash mashinasi qo'ygan raqamlar yozilgan. Bu raqamlarni to'g'ri o'qing.



46. Burchakli bo'lish



7. Misolni yechib, sutli qattiq shokolad bozorga birinchi marta nechanchi yili chiqqanini bilib oling. Bu shirinlik necha yildan beri mavjud?

$$(233\ 926 + 157\ 632 - 1\ 939 \cdot 200) : 2$$



8. Hisobchi jumadan yakshanbagacha qahvaxonaga 980 kishi tashrif buyurganini hisoblab chiqdi. Shu bilan birga, dam olish kunlari qahvaxonaga 725 kishi tashrif buyurgan. Agar shanba kuni qahvaxonada juma kundagidan 123 kishi ko'p bo'lgan bo'lsa, yakshanba kuni necha kishi tashrif buyurgan?



9. Qandolat fabrikasida 24 ta tayyor tort bor, har bir tortga beze yoki muzqaymoq qo'shilgan. Bezeli tortlar 15 ta, muzqaymoqli tortlar 19 ta bo'lsa, ham beze, ham muzqaymoq qo'shilgan tortlar nechta bo'ladi?



10. Burchakli bo'lishdan foydalanib, teskari amal – ko'paytirish yordamida bo'lishning to'g'riligini tekshirib ko'ring.

$$504 : 9$$

$$261 : 3$$

$$272 : 8$$

$$2\ 982 : 7$$

$$3\ 084 : 6$$

$$139\ 302 : 9$$



11. Qandolat fabrikasiga shakar va un olib kelindi. Bir qop unning massasi bir qop shakarining massasidan qancha og'irroq?



Jami: 440 kg



Jami: 468 kg